

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI

DIPLOMATIK SERVIS XIZMATI



№ 04

BUYRUQ

2026-yil 02-fevral

“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 23-yanvardagi 26-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 23-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasidagi xorijiy davlatlarning diplomatik vakolatxonalari, konsullik muassasalari va ularga tenglashtirilgan, Tashqi ishlar vazirligida akkreditatsiyadan o‘tgan tashkilotlarga xizmat ko‘rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 26-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining 2026-yil 30-yanvardagi BR-4-son buyrug‘i bilan Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi “Diplomatik servis xizmati” DUK negizida “Diplomatik servis xizmati” (Dipservis xizmati) davlat muassasasi tashkil etilganligi va uning ustavi tasdiqlanganligi munosabati bilan,

B U Y U R A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 23-yanvardagi 26-son qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi “Diplomatik servis xizmati” davlat unitar korxonasi negizida “Diplomatik servis xizmati” davlat muassasasi tashkil etilganligi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlar Mahkamasining mazkur qarorida quyidagilar belgilanganligi ijro uchun qabul qilinsin:

Dipservis xizmati O‘zbekiston Respublikasidagi xorijiy davlatlarning diplomatik vakolatxonalari, konsullik muassasalari va ularga tenglashtirilgan Tashqi ishlar vazirligida akkreditatsiyadan o‘tgan tashkilotlarga, O‘zbekistondan xarid qilinadigan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) qismida Tashqi ishlar vazirligiga, O‘zbekistonning chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalariga xizmat ko‘rsatish, O‘zbekiston Respublikasi hududida diplomatik vakolatxonalar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari uchun mo‘ljallangan obyektlar va uy-joylarni qurish hamda rekonstruksiya qilish bo‘yicha yagona buyurtmachi hisoblanishi;

Dipservis xizmati Tashqi ishlar vazirligiga xorijiy davlatlar rasmiy delegatsiyalarining O‘zbekistonda bo‘lishi bilan bog‘liq masalalarni hal etishda, Hukumat va Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro tadbirlarni hukumat darajasida, shu jumladan, xorijiy davlatlarda o‘tkazishga ko‘maklashishi;

Dipservis xizmati xorijiy tijorat tashkilotlari vakolatxona va filiallariga, yuridik va jismoniy, shu jumladan, chet ellik shaxslarga o‘z xizmatlarini (ishlarini) ko‘rsatish huquqiga egaligi;

Dipservis xizmati ijaraga oluvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, xorijiy) bilan to'g'ridan-to'g'ri ko'chmas mulk ijara shartnomasini tuzish (elektron onlayn auktsion o'tkazmasdan) huquqiga egaligi, bunda ijara to'lovlaridan kelib tushadigan mablag'lar to'liqligicha Dipservis xizmati tasarrufida qoldirilishi.

3. Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 23-yanvardagi 26-son qarori ijrosini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. **Yuridik bo'lim** (I. Sotvoldiyev) 3 kun muddatda Dipservis xizmati ustavini o'rnatilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlasin.

5. **Bosh buxgalter** (S. Mehrojoy):

10 (o'n) kun muddatda Dipservis xizmatining moliyaviy hujjatlariga kerakli o'zgartirishlarni kiritsin;

3 (uch) kun muddatda Dipservis xizmatiga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib, Dipservis xizmatining strukturasi va shtatlar jadvalini ishlab chiqsin va Tashqi ishlar vazirligiga tasdiqlash uchun kiritsin;

2026-yil 10-fevralga qadar tuzilgan shartnomalar bo'yicha kontragentlarni tashkilotning tashkiliy-huquqiy shakli o'zgarganligi to'g'risida xabardor qilishni tashkil etsin.

6. **Inson resurslarini boshqarish bo'limi** (Sh. Isamuxamedova):

kadrlar hujjatlariga, xodimlarning mehnat shartnomalari va daftarchalariga tegishli o'zgartirishlarni kiritsin.

7. **Ma'muriy-xo'jalik bo'limi** (A. Kayumov):

2026-yil 10-fevralga qadar barcha blankalarga, muhr va shtamplarga, shuningdek peshlavhalarga "Diplomatik servis xizmati" davlat muassasasi tarzida o'zgartirishlar kiritilishini ta'minlasin;

oldingi "Diplomatik servis xizmati" DUK nomi yozilgan blankalar, muhrlar va shtamplarning belgilangan tartibda yo'q qilinishini ta'minlasin.

8. **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'limi** (R. Usmonov) 2026-yil 15-fevralgacha Dipservis xizmatining veb-saytiga tegishli o'zgartirishlarni kiritsin.

9. **Bosh direktor o'rinbosarlari** (F.Mirbabayev, A.Tashpulatov) va **barcha tarkibiy bo'linmalar boshliqlari** bir oy muddatda tarkibiy bo'linmalarning ichki hujjatlarini (nizomlar, lavozim yo'riqnomalari va b.) qaytadan ishlab chiqib, rahbariyatga tasdiqlash uchun kiritsin.

10. **Bosh direktor o'rinbosarlari** (F.Mirbabayev, A.Tashpulatov), **bosh buxgalter** (S.Mehrojoy), **Yuridik bo'lim** (I. Sotvoldiyev) va **Inson resurslarini boshqarish bo'limi** (Sh. Isamuxamedova) bir oy muddatda Dipservis xizmatining tashkiliy-boshqaruv hujjatlarini ishlab chiqib, tegishli ichki hujjatlarga kerakli o'zgartirishlarni kiritsin.

11. Ushbu buyruq ijrosining nazoratini o'z zimmasida qoldiraman.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining 2026-yil 30-yanvardagi BR-4-son buyrug'i, Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 23-yanvardagi 26-son qarori va 2023-yil 21-iyuldagi 302-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat muassasalari to'g'risida"gi Nizom.

Bosh direktor



O. Egamberdiyev